

## **O‘ZBEK TILINING ME‘YORIYLIK TAMOYILLARI XUSUSIDA**

**Ro‘ziyeva Muhabbat Mahmalatib qizi**

O‘zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti tyutori

[Muhabbatbekzod5@gmail.com](mailto:Muhabbatbekzod5@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tilning aloqa, xabar, ta’sir etish kabi vazifalarni bajarishda yetakchi sanalib, imkoniyatlari kengayib borishi natijasida, kishilik jamiyati to‘plagan tajriba va bilimlarni kelajak avlodlarga etkazishda ulug‘vor ijtimoiy vazifa bajarishi va shu bilan birga o‘z me‘yoriylik tamoyillariga ega bo‘lib borishi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** til, aloqa, me‘yor, innovatsiya, ta’lim tizimi.

Til shakllanib va rivojlanib borishi davomida uzoq tarixiy yo‘lni bosib o‘tadi. Ushbu jarayonda, asta-sekinlik bilan takomillashib boradi. Bu holat uning ichki qurilishida, amalda bo‘lish qoidalarining ma’lum bir tizimga kela borishida kuzatiladi. ”Ichki qurilish nuqtai nazaridan til ma’lum miqdordagi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan til birliklarining yig‘indisi va ana shu birliklardan foydalanish qoidalaridan tashkil topgan murakkab sistemadir”. Ushbu tizimning mavjud bo‘lishi me‘yor degan atamaning dunyoga kelishiga sababchidir. Demak, me‘yor tilning barcha jarayonlarini tartibga solib turuvchi o‘lchov hisoblanadi.

Me‘yor (norma) til birliklarini nutqning u yoki bu ko‘rinishida ishlatilish qonuniyatlari va imkoniyatlari bo‘lib, ular jamiyat tomonidan belgilangan va aniqlangandir . Yuqorida aytilgan fikrlardan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, til va nutq tizimida me‘yorning o‘rni katta. Darhaqiqat, til nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardan oq, uni me‘yorlashtirish jamiyat, jamoa ehtiyojiga aylantirish uchun me‘yoriy muammolarni hal qilish kun tartibiga quyilgan. Me‘yor tushunchasiga nimalar kiradi? Me‘yor jamiyat a‘zolari tomonidan belgilangan qonuniyat va imkoniyatlardan iborat. Birinchidan, tilning moddiy tomoni haqida bizning tasavvurimiz nutqda yuzaga chiqar [65;22]ekan, u qanday shakl va ko‘rinishda voqelanishi jamiyat tomonidan muayyan me‘yorlar bilan belgilangan bo‘ladi. Masalan, nari bor degan mazmundagi imo-ishorani qilmoqchi bo‘lsak, kaft barmoqlarini o‘zimizga nisbatan ikki-uch marta qarama-qarshi harakatlantiramiz. Nutqda, esa bu holatni tovushlar tizimi vositasida talaffuz qilish va aytishimiz mumkin. Bu jamiyat tomonidan qabul qilingan me‘yor sanaladi. Aytilganlarning barchasi me‘yorning tarkibiy qismlaridir. shunga ko‘ra, til imkoniyatlari me‘yor darchasidan o‘tib, nutqda yuzaga chiqadi . Tildagi me‘yor milliylik va tarixiylik tamoyilini o‘zida mujassam

etadi. Yillar davomida shakllangan an'anaviylikka ega bo'ladi. Inson tafakkuri borliqni ongida shakllantirishi uzoq va davom etuvchi jarayondir. Tabiat hamda jamiyatdagi barcha narsa-hodisalar tilda zarur bo'lgan nom bilan gavdalanadi. Turli tillarda turlicha ifodalangan bir xil narsa va hodisalar tilning ijtimoiy-tarixiy-milliy hodisa ekanligini isbotlaydi. Tildagi me'yor muammolarini qisqa vaqtda bartaraf etish mushkul. Bu sohaning shakllanishida lug'atchilik katta ahamiyatga ega. Darhaqiqat, lug'atlar adabiy til me'yorlarini belgilashga intilar ekan, me'yorni abadiylashtirmaydi. Zero, til o'zgargani kabi, me'yor ham vaqt o'tgani sari o'zgarib, rivojlanib boradi. O'zbek adabiy tili me'yoring rivoji va kamoloti uchun xizmat qilgan asoslardan yana biri 1984- yili e'lon qilingan "O'zbek adabiy talaffuzi lug'ati"dir. Lug'atning asosiy maqsadi so'zlarni adabiy, ya'ni to'g'ri talaffuzini ko'rsatish hamda uni me'yorlashtirishdan iborat. Lug'atning ko'zga tashlanadigan muhim boshqa jihatlari ham bor. Jumladan, so'zlarning talaffuz variantlari, me'yoriy va me'yoriy bo'lmagan grammatik shakllar yordamchi material sifatida qayd etiladi. Ushbu lug'at o'zbek adabiy tilining og'zaki shaklini me'yorlashtirish, tartibga solish, uning o'ziga xos tomonlarini tadqiq qilish kerakligini ko'rsatib berdi. O'zbek adabiy tili me'yoring izchilligini ta'minlashda yana bir hujjat katta o'rin egallaydi. 1989 -yil "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida"gi Qonunning qabul qilinishi me'yoring birinchi qonuniy hujjati sanaladi. Ammo mazkur Qonunning hamma moddalariga to'liq amal qilinmadi. O'sha davr muhiti bir tomondan, rus tilida ish yuritishni talab qilsa, ikkinchi tomondan, bu ko'p millatli xalq uchun sharoit taqozosi bilan savod chiqarish ham rus tilida bo'lardi. O'zbek tilidan foydalanishdagi ko'plab qiyinchiliklarni bartaraf etish ancha murakkab edi. O'zbek xalqining bir asrdan ortiq vaqt davr nuqtai nazaridan Chor Rossiyasiga qaram bo'lganligi tilimiz va nutqimiz sofligiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Natijada sof turkiy so'zlarning o'rniga rus tilidagi so'zlarning o'zbekcha talaffuz bilan qo'llanilishi ortib bordi. Ushbu omillar o'zbek tili me'yoriga etarli darajada o'z ta'sirini o'tkazdi. Demak, bugungi kunda tillarning o'zaro tavsifini inobatga olib, me'yor darajasini imkon qadar tartibga solish kerak. Tilga tazyiq o'tkazib bo'lmaydi. Shuning uchun tegishli yo'l-yo'riqlar, tavsiyalar, ko'rsatmalar ishlab chiqilishi zarur. Keyingi yillarda nashr qilinayotgan qator imlo, izohli va orfoepik lug'atlar, qolaversa, til to'g'risida qabul qilinayotgan qarorlar o'zbek adabiy tili me'yorlarining qat'iylashishiga xizmat qilmoqda. Tilni me'yorlashtirish masalasi uzoq vaqt tilshunoslar e'tiboridan chetda qoldi. Ushbu muammoning hal qilinishida Praga tilshunoslik maktabining xizmati katta. Bu maktab namoyandalari mazkur masalaga ob'ektiv hodisa sifatida qarab, me'yoring til sohasidagi mohiyatini ochishga harakat qildilar. Ular til me'yorini vazifaviy (funktional), ijtimoiy-lisoniy (lingvosotsiologik) va aniq lisoniy-tarixiy hodisa sifatida o'rgandilar.

Me'yor haqida aytilgan fikr va g'oyalar uzoq yillar rus tilshunosligi hamda boshqa milliy tillarga tatbiq qilingan. Yaratilgan g'oyalar tilshunoslik sohasining rivojlanishi uchun xizmat qildi. XX asr o'rtalariga kelib me'yor tushunchasiga yondashuv o'zgardi. Lingvistik vositalarning qo'llanishini muayyan tartibga solish, me'yorlashtirish kuchaydi. Shu ma'noda yana bir chex olimi E.Koseriu ta'limoti bu fikrlar bilan bevosita bog'liq. Til hodisalari, ya'ni me'yor masalasi tilshunoslik sohasida uzoq yillar qizg'in baxs va munozaralarga sabab bo'ldi, chunki aytilgan fikrlar turlicha. Ular bir-biriga zidlanadi, to'ldiradi va hokazo... Ingliz tilshunosligida ham qator olimlar me'yor to'g'risida o'z fikrlarini bildirishgan. Jumladan, E.Gauere, A.Markuordtlar me'yorga xalq tomonidan ishlatiladigan va til jamiyati qo'llaydigan til shakllari sifatida qarashgan. Ushbu munosabat birinchi bo'lib R.Trench tomonidan tilning tilshunos xohlagan elementlari emas, balki tilda haqiqatan ham nima mavjud va ishlatilayotgan bo'lsa o'sha to'g'riligi tan olingan. Ikkinchi guruh olimlari G.Xartung va R.Pullilar me'yorni, umuman, qarama-qarshi ma'noda talqin qilishadi. Ularning fikricha, maxsus qo'llanmalar grammatikachilar va maxsus tavsiyanoma tuzuvchilar tomonidan yaratilgan hamda tavsiya etilgan qo'llanmalar me'yorni belgilab beradi. Bu nazariya vakillari me'yorni tilshunos mutaxassislar yaratishini e'tirof etishadi. Me'yorning funksional jihatlariga e'tibor qaratgan D.Krepp ham me'yorni ikki aspektda yoritadi, tilda me'yoriy va yaxshi qo'llanishni farqlaydi. Tilshunos jamiyat tomonidan faol qo'llanadigan so'zlarni me'yor hamda til jamoasi vakillarining fikrlari va kechinmalarini tushunarli tarzda ifodalaydigan tilni —yaxshi till deb hisoblaydi. O'zbek adabiy tilining me'yoriy vositalarining aholi qatlamlari tomonidan o'zlashtirilishi yetarli darajada emas. Ammo sheva va lahjalarga adabiy tilning ta'siri sezilarli bo'ldi. Shuning uchun umumxalq tilida Shevaning imkoniyati tobora kamayib bormoqda. Nutq madaniyati tilning leksik, semantik, imlo, talaffuz va boshqa me'yorlarini nazorat qiladigan soha. Me'yorning shakllanishida tilshunoslarning xizmati katta. O'RFA Til va adabiyot instituti professori G'.Abdurahmonov me'yordan chalg'imaslik, uni aniq ko'rsatish maqsadida Tilshunoslar oldida turgan muh im vazifa normadan tashqari, xato deb tushuniladigan til faktlarini kolleksiya qilish emas, balki ularni sistemalashtirish, sababini aniqlash, tilda qo'llanilayotgan, ammo normalashtirilmagan hodisalarni adabiy til normalariga zid bo'lgan anormal hodisalardan farqlab borishdan iborat, deya ta'kidlaydi. Tilshunos olim S.Ibrohimov ham me'yor, nutq madaniyati, til va uning qadr-qimmati to'g'risida asosli mulohaza yuritgan. Ayniqsa, olimning uslub va talaffuz me'yoriga bag'ishlangan adabiy til imlosi, til va uning qadr-qimmati, til va tafakkur munosabati, tilning ijtimoiy mohiyati to'g'risidagi nazariyalari diqqatga sazovor. O'zbek tilshunosligida adabiy til me'yoring sotsiolingvistik muammolari (Q.Xonazarov), me'yor va variantdorlik

masalasi (A.Boboyeva, M.Asomiddinova, A.Madvaliyev), adabiy me'yor va pleonazm mavzusi (R.Qo'ng'urov, N.Mahkamov), adabiy me'yor va paronimlar masalasi (I.Toshaliyev, E.Dadaxo'jaev) va boshqa muammolar yoritilgan. Keltirilgan tadqiqot va nazariyalarning ahamiyatligi shundaki, ular adabiy me'yor va me'yor tushunchalarini tushunishimizga hamda farqlashimizga yordam beradi, chunki me'yor tushunchasini tor ma'noda (adabiy tilning me'yorlashish holati) va keng ma'noda (tilning barcha sathlaridagi me'yorlashish holatini) tushunish mumkin. E.Begmatov me'yor tushunchasini keng ma'noda izohlab, dialekt va shevalarni adabiy tildan, tillarni tillardan farqlab, ularni misollar yordamida izohlab bergan. Muallif adabiy me'yorning yetti turiga xos xususiyatlarni ko'rsatib o'tgan.

Demak, jamiyat a'zolarining nutqiy muloqot davomida so'zlardan o'rinli hamda to'g'ri foydalanishi me'yoriylik tamoyillari asosida me'yorlashtiriladi. Biz tilni sof holda saqlash, so'zlardan o'rinli foydalanish haqida gapirishdan oldin bularning barchasi qay holatda qo'llanilishi kerakligiga e'tibor qaratishimiz kerak bo'ladi, ya'ni tildagi me'yoriylik tamoyillari lingvistikaning asosiy oltin qoidasi ekanligini yodda saqlash zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Ashirboev S, Azimov I. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi fanidan o'quv qo'llanmasi. – Toshkent.- 2012.
- 2.Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. Ilmiy-uslubiy nashr.– Toshkent: Yoshlar matbuoti, .2009.22-b
- 3.Jalilov K.. Baholash nazariyasi asoslari. -Toshkent, Akademya nashr. 2020. 252-b.